

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7858253>

Bazarbaeva Anargul G'ayratdin qizi

Qoraqolpoq davlat universiteti

Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: *XXI-asir axborot asri, marifat asri. Binobarin, yani shu asirga kelib hayot shu darajada jiddiylashib kettiki, bu jarayonning qudratli oqimida ommaviy axborot vositalarining ahamiyati yanada ortdi. Hozir jahonning u yoki bu burchagida roy bergan yoxud sodir bo'layotgan voqiya-hodisa haqida gazeta va jurnal, radio va televideniye orqali tez fursatda hatto to'g'ridan- to'g'ri axborotlar olish imkoniga egamiz. Shu boyis bugingi kunda behisob ommaviy axborot vositalari tomonidan jamiyatimiz betinim yangilik va xabarlar oqimi bilan taminlamoqda. Ayniqsa, telekommunikaciya, axborot texnologiyalari sohasida roy bergan kashfiyot va iqtidorlar, axborot olish va tarqatish uchun keng imkoniyatlar ochib beruvchi kompyuter texnikasi, xalqaro axborot aloqa tizimi, internetning xayotimizga kirib kelishi jamiyatimiz kiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Jurnalistika yangiliklari ommaga yoki oxirgi vosita, ma'rifat maydoni. Jurnalistika publistikasiz va jurnalistika ish kora olmaydi, ular bir-bir bilan boglanib ketadi a'zosi, bir-birining tarkibiy qismiga aylanadi. Kòrinib turibdiki , "jurnalistika", bosh nashriyot Kengashi matbuot xizmati-yigindisi.*

Kalit sòzlar: *matbuot, radio va televideniya, internet, veb sayt, axborot, kommunikatsiya, aloqa, OAV(ommmaviy axborot vositalari)*

Axborot tuplash va tarqatishning dastlabki ogzaki (voizlar, jarchilar, choparlar va boshqalar) va yozma (Papiuslardagi, e'lon taxtalaridagi va hokazolardagi) na munalari nomuntazam bo'lsa-da, qadim zamonlardan yaxshi ma'lum. Jurnalistika XVII asrda iqtisodiy, siyosiy kurash kuchaygan davrda paydo boldi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida radiojurnalistika, fotojurnalistika va kinojurnalistika, 40-yillardan telejurnalistika tarmoqlari rivojlandi. Turkistonda dastlabki matbuot mahsulotlari XIX asrning ikkinchi yarmida ishlab chiqarila boshladi. Ulkada xususiy Bosmaxonalar, litografiya va boshka poligrafiya korxonalarini tashkil etildi. Òzbek jurnalistikasining shakllanishida "Turkestanskije Vedomosti", "Turkiston viloyatining gazeti" kabi rasmiy gazetalar muhim rol òynadi. Zokirjon Furkat, Hamza Hakimzoda, Sattorxon Abdugafforov, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy kabi ma'rifatparvar adiblar o'zbek jurnalistikasini rivojlantirishga katta xissa qo'shdilar. Atoqli jurnalistlar M.Shermuxeamedov, 3.Said, A.Ayubov, K.Aliev, M.Hasan, K.Sorokin, M.Usmonov, A.Yokubov va boshkalar milliy jurnalistikaning dastlabki namunalari yaratdilar. A.Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Kaxxor, Shayxzoda, K.Yashin, S.Abdulla, Zulfiya, N.Safarov, A.Muxtor, R.Fayziy, S.Axmad, I.Rahim kabi yozuvchilar ijodining

shakllanishida jurnalistika hayot maktabi bòldi. Respublika matbuotini, radio va televideniesini professional jurnalist kadrlar bilan ta'minlash maqsadida Mirzo Ulugbek nomidagi Uzbekiston Milliy universitstida 1949 yil filologiya fakultetining jurnalistika bo'limi tashkil etildi va 1967 yildan boshlab Fakultet sifatida faoliyat ko'rsatmoqda (bu yerda tarix hamda filologiya fanlari doktorlari, nomzodlari, professor va docentlar: T.Ernazarov, O.Togaev, O.Saidov, A.Akbarov, P.Xamdamiyov, V.Abdullaev, R.Muhammadiev, A.Karimov, T.Pidaev, S.Umirov, G'.G'ofurov, F.Nesterenko, F.Muminov, F.Muminova, M.Xudoykulov, B.Dustkora- eV, A.Abduraxmonov, K.Ernazarov, Yo.Mamatova, M.Alimova va boshkalar ilmiy-pedagogik faoliyat olib bordilar). 1999-yilda O'zbek davlat Jahon tillari universitetida xalqaro jurnalistika fakulteti tashkil topdi. O'zbekistonda "O'zbekiston matbuoti", "kino" kabi maxsus kasbga doir jurnallar chop etilmoqda. Qator jurnalistik uyushmalar: xalqaro jurnalistlar tashkiloti (1946); xalqaro jurnalistlar Federasiyasi (1952); Hamdo'stlik mamlakatlari, shuningdek, Òzbekiston jurnalistlari uyushmasi (1957) mavjud. 1958-yil 8-sentyabr xalqaro jurnalistlar birdamlik kuni xisoblanadi. Afrikada erkin matbuot rolini oshirish maqsadida noshirlar, muharrirlar, jurnalistlar tomonidan Vindxuks deklarasiyasi ishlab chiqilgan. YUNESKO tomonidan 1991 yili 3 may - Jahon matbuoti erkinligi kuni deb e'lon kilingan. Ya'ni, Deklarasiya qabul qilingan kun bayram sifatida nishonlanadi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rni va rolini oshirishga qaratilgan muxim amaliy choralar ko'rildi. "O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamgarmasi" tashkil qilindi (1996). Mazkur jamg'arma ommaviy axborot vositalari vakillarining mustaqil, o'zini o'zi boshqaruvchi, xukumatga qarashli bo'lmagan tashkiloti xisoblanadi. Bundan tashqari, Prezident devonida "axborot Markazi", shuningdek, "Milliy matbuot markazi", "jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi", "Respublika huquqiy ma'rifat targiboti markazi" kabilar tashkil etildi. Istiqloq davrida "O'zbekistonda xizmat kòrsatgan jurnalist" unvoni ta'sis etildi.

Ommaviy axborot vositalari O'zbekiston Respublikasining "noshirlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni ("O'zbekiston matbuoti", 1996, 6-son), "O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotiga televidenie va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni ("O'zbekiston matbuoti", 1996, 4-son), O'zbekiston Respublikasining "axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi (1997 yil 24 aprel), "Jurnalistlik faoliyatini ximoya qilish to'g'risida"gi (1997 yil 26 de- kabr), "reklama to'g'risida"gi (1998 yil 25 dekabr) qonunlariga xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "jurnalist kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash to'g'risida"gi (1999 yil 26 fevral) karori ga binoan ish ko'radi. 2002 yil 12 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "axborot olish printsiplari va kafolatlari to'g'risida"- gi qonuni Oliy Majlis tomonidan muhokama qilindi.

Turkiston general-gubernatorligining rasmiy gazetasi "Turkestarskie Vedomosti" ning (1870-1917) chiqa boshlashi bilan bu yerda vaqqli matbuotga asos solindi.Unda ulka tarixi, madaniyati, geografiyasi, etno kerakli materiallar bosilgan. Xuddi shu vaqtda (1870) maxalliy tilda "Turkiston viloyatining gazetasi" nashr etila boshladi. 1917 yilgacha Turkistonda bu ikki gazetadan tashqari, turli vaqtlarda ruscha va O'zbekcha (qisman qirgiz va tojik tillarida) 100 dan ortiq gazeta chiqarilgan. Ularning ko'pchiligi Toshkent, Samarkand, Ashxobod, Qoqon, Andijon, Buxoro, Fargona va boshka shaxarlarda nashr etildi. Bular: "Urta Osiyoning umr guzarligi", "taraqqiy", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Fargona" (1912-1914) "najot", "Fargona nidosi", "Turon", "Turk eli" (1917) va boshqalar edi."Taraqqiy" gazetasi 1906 yil 27 iyundan - 1906 yil 20 avgustga qadar faoliyat yuritdi. U haqiqiy ma'noda taraqqiyparvar, mahalliy xalq manfaatini ifoda etgan milliy gazeta edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra "taraqqiy" gazetasi tashkil topgan sana - 27 iyun mamlakatimizda "matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" deb e'lon qilingan.

Xulosa:Millatimizning ma'rifatparvar etakchilaridan bõlgan Ubaydullaxo'ja Asadullaxujaev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Obidjon Mahmudovlar Turkiston vaqqli matbuotidan millat va uning istiqboli yulida jaholatga qarshi ma'rifat, yovuzlikka qarshi ozodlik, qabohatga qarshi jasorat bilan jamiyat hayotining turli qirralarini tezkor aks ettiruvchi eng samarali vosita sifatida gazetalardan foydalangan edilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T. Ernazarov. O'zbekistonda vaktli matbuot. T., 1954;
2. X.Yodgorov. "Nurli yo'l" T., 1968.
3. N.Abduazizova. Turkiston matbuoti tarixi. T., "Akademiya", 2000;
4. N.Abduazizova. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. T., "Akade - miya", 2002).